

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14688551>

QOVUNNING HAR XIL NAV NAMUNALARINI CHATISHTIRIB, YANGI AVLOD YARATISH

Solijonov Shaxboz Zafarjon o'g'li

Namangan davlat universiteti biotexnologiya kafedrası o'qituvchisi

Shahbozsolijonov96@gmail.com

Mamadaliyev Doniyor Shojalil o'g'li

Namangan davlat universiteti biotexnologiya kafedrası o'qituvchisi

doniyormamadaliyev@99gmail.com

***Annotatsiya.** Maqolada xalqimizning eng sevimli poliz mahsulotlaridan biri bo'lgan qovunning har xil nav namunalari o'zaro chatishtirilib eng serhosil va ko'p urug' berishi mumkin bo'lgan navlar haqida ma'lumot, qovun yetishtirishning iqtisodiy samaradorligi, hamda uni yetishtirishning o'ziga xos jihatatlari haqida gapirilgan.*

***Kalit so'zlar.** Qovun, dehqonchilik, polizchilik, shakarpalak, handalak, duragay, tuproq, chatishtirish.*

***Abstract.** The article contains information about the varieties that can be the most fruitful and produce the most seeds by cross-breeding various types of melons, one of the most popular products of our people, the economic efficiency of melon cultivation, and the specific characteristics of its cultivation. aspects were talked about.*

***Keywords.** Melon, cultivation, cultivation, sugarcane, handalak, hybrid, soil, crossbreeding.*

Kirish:

O'zbekistonda dehqonchilik tarixiga nazar tashlasak, polizchilik qadimiy sohalardan hisoblanadi. Xorazmda olib borilgan arxeologik qazilmalar natijasida qovunchilik bilan vohada eramizgacha bo'lgan davrlarda ham shug'ullanilgani to'g'risida ma'lumotlar bor.

Hozirgi kunda Respublikamiz qishloq xo'jaligida bo'layotgan o'zgarishlar tufayli polizchilikka ham e'tibor kuchaydi. Ayniqsa bozor iqtisodiyoti davrida, oziq-

ovqat muammo bo'lib turganda qimmatbaho ekinlardan bo'lgan tarvuz, qovun va qovoq ishlab chiqarishni kuchaytirish ham taqazo etilmoqda.

O'zbekistonda mavjud poliz ekinlari maydoni 42-45 ming gektar hosildorligi 200 sentner atrofida bo'lsa, yaqin kelajakda bu ko'rsatkichni 60 ming gektarga va yalpi hosilni 1,5 mln tonnaga yetkazish ko'zda tutilmoqda. Respublikamizda har yili aholi jon boshiga poliz mahsulotlari ishlab chiqarish yaqin yillarda 98,7 kilogrammga yetkazishi shuning 54,8 kilogrammini qovun tashkil etishi rejalashtirilgan.

O'zbekiston Respublikasining 2017-2021 yillarda yanada rivojlantirish bo'yicha Xarakteristik strategiyasi bu borada, muhim dasturu amaldir. Mazkur hujjatga asosan, 2021 yilga qadar tuproq unumdorligi nisbatan past, suv ta'minoti og'ir, past rentabelli paxta va g'alla ekin maydonlarini bosqichma bosqich qisqartirish orqali, ular o'rniga meva-sabzovot, dukkakli-don, kartoshka, moyli va boshqa ozuqabop ekinlarni joylashtirish, ko'plab dolzarb vazifalarni hamjihatlikda, ma'suliyat bilan belgilangan muddatlarda ado etmog'imiz lozim.

Muxtaram Prezidentimiz SH.M.Mirziyoev respublikamiz viloyatlarida iqtisodiy-ijtimoiy isloxoatlarni borishi hamda bunyodkorlik ishlarini amalga oshirishda xalqimizni oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlabgina qolmay uni eksport qilish bo'yicha aniq va eng zarur vazifalarni belgilab bermoqda. Respublikamizda sabzavot, poliz va kartoshka ekinlarini etishtirish bilan shug'ullanuvchi dexqon, fermer xamda mutaxassislarning asosiy maqsad va vazifalari xar gektar sug'oriladigan yerdan olinadigan sabzavot, poliz, kartoshka mahsulotlari miqdorini yuqori va sifatli xosil etishtirish xisobiga keskin oshirishdan iborat.

Qishloq xo'jaligi – O'zbekiston iqtisodiyotining muhim tarmog'i hisoblanadi. Bu tarmoq mamlakat aholisining oziq-ovqat mahsulotlariga, qayta ishlash sanoati tarmoqlarining esa xom ashyoga bo'lgan talabini qondiradi. Oziq-ovqat mahsulotlarining 90 foizga yaqini agrar tarmoqda tayyorlanadi.

Dexqonchilikda ishlar avvalo ekiladigan sabzavot, poliz va kartoshka ekinlarini tuproq turiga qarab joylashni rejalashtirishdan boshlanadi. Bunda ushbu ekinlarni biologik xususyatlarini inobatga olgan xolda bajariladi. Sabzavot poliz ekinlarini joylashtirishda, albatda ularni almashlab ekish ko'zda tutilishi shart.

Qishloq xo'jaligini rivojlantirish masalasi respublikamiz iqtisodiyotini rivojlantirishning muhim ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligining ma'lumotlariga qaraganda, hozirda mamlakatimizda oziq-ovqat mahsulotlari yetishtirishning barqarorligi hisobidan aholining asosiy iste'mol mahsulotlariga bo'lgan ehtiyoji deyarli yuz foiz o'zi shlab chiqarishimiz hisobidan ta'minlanmoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Taniqli olim K.I.Pangalo o'zining "Poliz ekinlarining kelib chiqishi va taraqqiyot yo'li" asarida poliz ekinlarini eng dastlabki avlodlari liana (chirmashib) o'suvchi ko'pyillik o'simliklar bo'lgani haqida yozadi. Hozirgi vaqtda poliz ekinlari ichida butasimon va o't shaklda o'suvchilari bor. Lekin, ko'pchilik madaniy turlari o't holda o'sadi.

Poliz ekinlarining ko'pchilik turlarida poyalari ingichka va uzun bo'ladi, faqat qovoqda (ayniqsa yirik mevalisida) poyalari yaxshi rivojlanib, yo'g'on va baquvvat bo'ladi. Qovunda asosiy poya uzunligi 3-4 metrgacha bo'ladi.

Poliz mevalar yig'ib olingandan keyin urug'i yetiltirilmaydi, chunki mevadan yangi ajratilgandan keyin tez unib chiqoladi. Meva o'ta pishib ketsa, urug'I meva ichida unib, yashil rang urug'pallabarglar chiqaradi. Po'sti ochrangli mevalarda anashunday holni ko'rish mumkin. A.I.Filov [21] ma'lumotiga ko'ra, bakteriyalar urug'ni o'rab turgan shilliq qavatni buzishi tufayli ularga havo tegadi, natijada urug'unadi, meva devorlaridan yorug'lik o'tishi sababli urug'pallalari rangga kiradi.

Poliz ekinlari qisqa kun o'simliklardir. Ular 10-12 soatlik unda eng tez o'sib rivojlanadi. Poliz ekinlari, ayniqsa, qovun va tarvuz juda yorug'sevar o'simliklardir. Soyada ular yaxshirivojlanmaydi va natijada hosildorligi pasayib ketadi. Shuning uchun ularni soyalab qo'yadigan o'simliklar bilan birga yoki mevali bog'lar qatororalariga ekish tavsiya etilmaydi. Poliz ekinlari hammasi qurg'oqchilikka chidamli. Ularning qurg'oqchilikka chidamligi faqat suvning kamsarflashiga emas, balki baquvvat ildizlari orqali tuproqdan o'zlashtirib olayotgan suv miqdoriga ham bog'liq Belik, [10].

Poliz ekinlarining turi va naviga qarab mineral va organik o'g'itlarga talabchanligi har xil. Hamma poliz ekinlari organik o'g'itlarga talabchan. Lekin juda ko'p miqdorda organik o'g'itlar berish (ayniqsa yangi, chirimagani) ham ekinlarni rivojlanishini sekinlashtiradi, kasalliklarga chidamliligini kamaytiradi va mevasining sifati buziladi.

Mineral o'g'itlar bilan oziqlantirish ham katta ahamiyatga ega, ayniqsa poliz ekinlari birinchi navbatda fosforli o'g'itlarga talabchan, keyin azotli va kaliyli. Ayniqsa, o'suv davrining boshida poliz ekinlari fosforgia talabchan bo'ladi. Lekin o'simliklarni o'sishi, shakllanishi va generativ organlarining paydo bo'lishi uchun azot ham zarur. Normadan ortiq ayniqsa kechiktirilib azotli o'g'itlarni berish mevalarning sifatini buzib, nitratlar ko'payadi, qanddorligi pasayadi, saqlanishi yomonlashadi.

Kaliy poliz ekinlarida modda almashinuvini yaxshilashda, rivojlanishda va generativ organlarning paydo bo'lishida katta ahamiyatga ega. Kaliy tuproqda etarli bo'lganda urg'ochi gullar paydo bo'lishi, ayniqsa ildiz sistemasiga yaqin joylarda

ortadi. Agarda, kaliy fosfor bilan birga berilsa mevalarning sifati yaxshi bo'ladi va qand miqdori ortadi (Qo'chqarovvaboshqalar), [15].

T.E.Ostonaqulov [16] azotli o'g'itlar yillik me'yorini ikki oziqlantirishda, birinchisi yaganadan so'ng 50 foizini, ikkinchisi gullash boshlanganda 50 foizini berishni tavsiya etsa, X.CH.Bo'riev, Ashurmetov.O.A., [11] azotli o'g'itlarning 50 % ni ekish oldidan yoki ekish bilan birga, qolgan qismini esa o'simliklar 3-4 ta chinbarg yozganda oziqlantirishni tavsiya etadi. Dala kuzda PYA-3-35 va PD-4-35 ikki yarusli pluglar bilan 28-30 sm chuqurlikda shudgorlanadi. Bedapoyadan bo'shagan yer bo'lsa chaptishlar o'rnatilgan ikki qatorli pluglar bilan haydaladi. Begona o'tlar ko'p bo'lgan dalalarda kuzgi shudgordan keyin VKS-1,8 mashinasi bilan begona o'tlarning ildizpoyalari taroqlab olinib, buzilgan pushta va egatlar GP-4,0 tekislagich-greyder yordamida tekislanadi. Bahorda, texnikalar yuraoladigan bo'lganda, qish davomida to'plangan namni tuproqda saqlab qolish uchun tishli SP-11 M boronalar bilan boronalaniladi, ekish oldidan esa CHXU-4 chizel kultivatori bilan bir vaqtda chizellanadi, boronalanadi va molalanadi. Ekish muddati tuproq-iqlim sharoitiga hamda nav xususiyatiga ko'ra turlicha bo'ladi.

Tadqiqot natijalari.

Ikki yillik tajriba natijalari asosida quyidagi xulosalar qilindi. Namangan viloyatining och tusli bo'z tuproqlarining agrofizik va agrokimyoviy xususiyatlari qovun ekinining o'sishi va rivojlanishiga ijobiy ta'sir etishi aniqlandi. Amal davri oxiridagi tuproq namunalarining tahlil natijalariga qaraganda, 1,2,3,4- variantlarning haydov (0-30 sm) qatlamida tuproq zichligi tegishli ravishda 1.35; 1.34; 1.36; 1.37 g/sm³ ni tashkil etib, amal davrining boshidagi ko'rsatkichga nisbatan 0.06-0.09 g/sm³ ga zichlashganligi aniqlandi.

Tuproqning 0-50 smli qatlami bo'yicha olib qaraganda ham bu ko'rsatkichlar 1.40; 1.41 va 1.43 g/sm³ tashkil etib, tuproq zichlanishini ortib borishi qayd etildi. Tajriba dalasidagi tuproqning g'ovaklik xususiyati esa, barcha variantlarda tuproq hajm og'irligiga bevosita bog'liq ravishda o'zgarib bordi. Boshqacha aytganda, tuproq zichlanishi kamayganda g'ovaklik xususiyati yaxshilanadi, tuproq zichlanishi ortib borganda, g'ovaklik xususiyatini pasayishi kuzatiladi. 1-iyun kungi kuzatuvlarda 3-4-variantlardagi qovunning bo'yi 35.2 smni tashkil etdi. 1-2-variantlardagi qovunning bo'yi 39.0-39.3 smni tashkil qilib, 3-4-variantlarda parvarish qilinayotgan qovunning bo'yiga nisbatan 4.1-4.2 smga balandroq o'sib rivojlandi. Tadqiqot dalasidagi qovunlarni pishganda har tupidan 3-4 donadan uzub olindi va eng yuqori hosil 3-varianda ekaligi aniqlandi. Ilmiy ishning asosiy maqsadi qovun navlarini o'zaro chatishtirib, duragay urug'lar yetishtirish bo'lganligi uchun qovunning birnecha navlari o'zaro chatishtirilib, jami bo'lib 223 gramm duragay urug' tayorlandi. Eng yuqori

duragay urug' qovunining SHakar palak navi bilan Suyunchi-2 navi (67 g) o'zaro chatishtirilganda olindi. Chatishtirish natijasida olingan 223 gramm duragay urug'ni ishlab chiqarishda ekib, yuqori hosil olish tavsiya etiladi. Duragay avlod qovunlari urug'larini har xil rejimda sug'orib, yuqori natija qayd etgan variantlar ishlab chiqarishga tavsiya qilindi. SHuningdek, tezpishar duragaylar yangi navlarni yaratish uchun seleksiyachilarga tavsiya etildi. Natijada qovunning yangi tezpishar va hosildor navlarini yaratilishi bilan ilmiy-amaliy ahamiyatga ega bo'ladi.

Muhokama.

Tajribada qovun o'stirishning iqtisodiy samaradorligini ifodalash uchun xo'jalikda bir gektar maydonga qilingan haqiqiy harajatlar, ular tarkibi, bir sentner mahsulotni sotish baxosi, maxsulot tannarxi, hosildorlik, bir gektardan olingan va sotilgan hosil qiymati, sof daromad va rentabellik darajasi asos qilib olindi .

Polizchilikda asosiy harajatlar 65-70% mehnat harajatlari, o'g'it va ximikatlar, aftomobil harajatlarini tashkil etadi. Xo'jalikda poliz mahsulotlari ishlab chiqarish uchun qilingan harajatlar tarkibi (bir gektarga hisoblanganda) bir gektar qovun maydoniga xo'jalikda qilinadigan harajatlar tarkibi (bir gektarga hisoblanganda) aniqlandi.

Tajriba o'tkazilgan xo'jalikda bir gektar yerdan poliz ekinlari hosildorligi gektaridan 160 sentnerni tashkil etib, uning uchun 390070 so'm harajat qilindi. Shu harajatning 98% ni mehnat harajatlari, urug', yoqilg'i va moylash materiallari hamda o'g'it va ximikatlar tashkil etdi

Xulosa va tavsiyalar.

Namangan viloyatining och tusli bo'z tuproqlarining agrofizik va agrokimyoviy xususiyatlari qovunekiningo'sishi va rivojlanishiga ijobiy ta'sir etishi aniqlandi. Amal davri oxiridagi tuproq namunalarining tahlil natijalariga qaraganda, 1,2,3,4-variantlarning haydov (0-30 sm) qatlamida tuproq zichligi tegishli ravishda 1.35; 1.34; 1.36; 1.37 g/sm³ ni tashkil etib, amal davrining boshidagi ko'rsatkichga nisbatan 0.06-0.09 g/sm³ ga zichlashganligi aniqlandi. Tuproqning 0-50 sm li qatlami bo'yicha olib qaraganda ham bu ko'rsatkichlar 1.40; 1.41 va 1.43 g/sm³ tashkil etib, tuproq zichlanishini ortib borishi qayd etildi. Tajriba dalasidagi tuproqning g'ovaklik xususiyati esa, barcha variantlarda tuproq hajm og'irligiga bevosita bog'liq ravishda o'zgarib bordi. Boshqacha aytganda, tuproq zichlanishi kamayganda g'ovaklik xususiyati yaxshilanadi, tuproq zichlanishi ortib borganda, g'ovaklik xususiyatini pasayishi kuzatiladi. 1-iyun kungi kuzatuvlarda 3-4-variantlardagi qovunning bo'yi 35.2 sm ni tashkil etdi. 1-2-variantlardagi qovunning bo'yi 39.0-39.3 sm ni tashkil qilib, 3-4-variantlarda parvarish qilinayotgan qovunning bo'yiga nisbatan 4.1-4.2 sm

ga balandroq o‘sib rivojlandi. Tadqiqot dalasidagi qovunlarni pishganda har tupidan 3-4 donadan uzub olindi va eng yuqori hosil 3-variantda ekaligi aniqlandi. Ilmiy ishning asosiy maqsadi qovun navlarini o‘zaro chatishtirib, duragay urug‘lar etishtirish bo‘lganligi uchun qovunning birnecha navlari o‘zaro chatishtirilib, jami bo‘lib 223 gramm duragay urug‘ tayorlandi. Eng yuqori duragay urug‘ qovunning SHakar palak navi bilan Suyunchi-2 navi (67 g) o‘zaro chatishtirilganda olindi. Chatishtirish natijasida olingan 223 gramm duragay urug‘ni ishlab chiqarishda ekib, yuqori hosil olish tavsiz etiladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Azimov.B.J., Azimov.B.B. –Polizchilik, polizchilik va kartoshkachilikda tajribalar o‘tkazish metodikasi. Toshkent 2002 y.
2. Balashyev.N.N. —Polizchilik. T., 1978.
3. Balashyev.N.N. Baxchevodstvo. T.: «O‘qituvchi», 1976.
4. Beksiyev.SH. G. —Enseklopediya ovoshevodstvo mira l. L., 2004.
5. BelikV.F. Baxchevie kulturi. M.: «Kolos», 1982.
6. Bo‘riyev X.CH., Ashurmetov. O.A. Poliz ekinlari biologiyasi va yetishtirish texnologiyasi. T.: «Mehnat», 2000.
7. Bo‘riyevX.CH., Do‘smuratova.S.I. Polizchilik. Ma’ruzalar matni:ToshDAU, 2000.
8. www.agrokorenevo.ru
9. www.urozhayna-gryadka.narod.ru
10. www.sadyk.ru